

DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANING
OLDINI OLISHDAGI MUAMMOLAR, KAMCHILIKLAR VA ULARGA
YECHIMLAR

Ergasheva Sevinch Sanjar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Atajanov Hamdambek Kuromboyevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Davlat xaridlari tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun esa o'z tovar, ish va xizmatlarini realizatsiya qilishning ajoyib imkoniyati bo'lishi bilan bir qatorda mamlakatda ishlab chiqarish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning ham asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyoti bir maromda rivojlanishida hamda tadbirkorlik muhiti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada davlat xaridlari o'g'lihuqiy bazalar majmui, ulardagi bo'shliqlar, amaliyotda davlat xaridlari borasida kuzatilayotgan korruption holatlar va shaxsiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda ularga bir qator yechimlar taqdim etiladi.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida davlat xaridlari sohasida uchrayotgan korruption holatlarga jiddiy muammolardan biri sifatida yondashilmoqda va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmini yaratish yuzasidan bir qator izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, bugungi kunda davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish milliy miqyosdagi davlat siyosatining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi 15-bandida davlat budgeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlaridan biri sifatida “Davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini oldini olish choralarini ko'rish” nazarda tutilgan.¹

¹ “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

Davlat xaridlari sohasida korrupsiyani oldini olishning normativ-huquqiy asoslari O‘zbeksiton Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilab berilib, ushbu qonunda davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, ochiqlik va shaffoflik, raqobat va xolislik kabi prinsiplar bayon qilingan.Lekin amalda bu norma ishlamayapti, desak xato bo‘lmaydi. Buni aytishga sabab bo‘lgan omillarni, bu boradagi xorij tajribasini ko‘rib chiqqan holda quyida qiyosiy huquqshunoslik qilishga va hozirda mavjud muammolarni o‘rganishga, ularga yechim topishga harakat qilaman.

Davlat xaridi- tovar, ish va xizmatlarni davlat buyurtmachilarini tomonidan pulli asosda olish jarayoni bo‘lib, davlat xaridlarining vazifalari davlat boshqaruvi faoliyati uchun kerakli bo‘lgan tovar, ishlar va xizmatlar bilan o‘z vaqtida , zarur miqdorda va turda, sifatda hamda narxda ta‘minlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga ko‘proq tadbirkolik subyektlarini jalg qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro standartlarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir.² Ularning har birining vazifasi , ahamiyati haqida *“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunda* ham qayd etilgan. Shuningdek, yuqorida nomi tilga olingan qonunning 5-moddasida davlat xaridlarini amalga oshirishning asosiy prinsiplari belgilab qo‘yilgan va ular orasida ochiqlik, shaffoflik, raqobat , xolislik hamda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplari ham mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki, barcha xaridlar qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari barchasi ochiq amalga oshirilishi, raqobatni cheklamasligi, korruption holatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim ekan. Ushbu qat’iy prinsiplar amalga oshirilishi shartligi *“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi hamda 5171-sonli “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ* da ham o‘z ifodasini topgan.

Davlat xaridlari tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun esa o‘z tovar , ish va xizmatlarini realizatsiya qilishning ajoyib imkoniyati bo‘lishi bilan bir qatorda , mamlakatda ishlab chiqarish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning ham asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda esa noqonuniy daromad ilinjidagi ayrim shaxslarning korruption xatti-harakatlari, davlat buyurtmachisi (davlat tashkiloti) va xarid ishtirokchisi (tadbirkor) o‘rtasida til biriktirish, talon-taroj qilish, o‘z mansab vakolatlarini suiste’mol qilish kabi holatlar asosiy ko‘zlangan ezgu maqsad va ijobjiy natijalarga erishish yo‘lidagi jiddiy to‘siq bo‘lib kelmoqda. Xususan, ushbu belgilar sifatida xarid ishtirokchisining raqobatga asoslangan xarid

² O‘roqov U. “Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun” . “Bozor, pul va kredit” jurnali, 8-son, 2018-yil

tartib-taomillarini chetlab o‘tishga urinishlari, xarid ijrochisining qonun talablariga zid tarzda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanlanishi, bunda xaridlar hajmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar ulushining sezilarli tarzda kattaligi, xaridlarni amalga oshirishda bir yoki bir nechta mahsulot yetkazib beruv-chining muntazam ravishda tanlanayotganligi, xaridlarni qismlarga bo‘lish, texnik topshiriqlarni tuzishda aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruksiyaga yoki modelga, u mansub bo‘lgan muayyan manbaga yoki ishlab chiqaruvchiga, eksklyuziv vakolatli huquqqa doir talablar yoki havolalar berilishi, xaridlarni o‘rtacha bozor narxlaridan qimmat narxlarda amalga oshirish kabilarni bayon qilish mumkin.

Umumiylar tarzda quyidagilarni hozirda davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga yo‘l qo‘yib berayotgan sabablar sifatida ko’rsatish mumkin:

- Tadbirkorlik subyektlarida davlat buyurtmachisining xolisligiga ishonchning pastligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida hozirda davlat xaridlari elektron savdolarida 4 % gina tadbirkorlik subyektlari ishtirok etmoqda.³
- Eng yaxshi takliflarni tanlab olish va tenderlar jarayonida umumiy, malakaviy, texnik topshiriqlardagi talablar yetarlicha normativlashtirilmagan, ya’ni bular to‘liq huquqiy tartibga solinmagan. Buning oqibatida esa davlat buyurtmachilari tomonidan obyektiv emas, subyektiv baho berish holatlari kuzatilmoqda.
- Davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hamon bo‘shliqlarga to‘la. Aynan shu kabi normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilmaganligi, tarqoq holatda ekanligi ham turli korruption sxemalarning faoliyatiga imkoniyat yaratib bermoqda. Misol uchun, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunning 57-moddasiga ko‘ra xarid komissiyasini shakllantirish davlat buyurtmachisining subyektiv ixtiyoriga havola qilingan. Mazkur davlat buyurtmachilari rahbarlari tomonidan korrupsiya holatlai sodir etilishiga, xususan xarid komissiyasini o‘ziga itoat etuvchi, o‘zining xizmati ostidagi xodimlar tarkibidan shakllantirish, o‘z vakolatidan foydalanib, ularga ta’sir o‘tkazish va oqibatda esa oldindan kelishilgan g‘alabalarga guvoh bo‘lish mumkin. Ya’ni xarid komissiyasini saylash buyurtmachilar ixtiyoridan olib qo‘yilishi lozim, deb hisoblayman.
- Qolaversa, hali-hamon davlat xaridlari sohasida ochiqlik ta’minlanmagan garchi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunning asosiy prinsiplaridan biri ochiqlik va shaffoflik hisoblansa ham. Masalan, xarid tartib-

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan

taomili o'tkazib bo'linganidan keying jarayonlar, jumladan ishlarni qabul qilib olish, tovarlar yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumotlar jamoatchilik uchun ochiqlanmagan . Ya'ni latentlangan.

Amaliyotdagi muammolarda misol tarzida keltiradigan bo'lsam:

1-holat. 1 mldr so'mdan ortiq bo'lgan uchta davlat xaridida qonunbuzilishi holatlari aniqlandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining masofaviy monitoring tartibidagi o'rganishlarida quyidagi davlat buyurtmachilarining umumiyligi qiymati 1 mldr so'mdan ortiq davlat xaridlarida qonunbuzilishi holatlari aniqlandi:

- Toshkent shahar 5-sonli yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasining 432,0 mln so'mlik;
- Chapqirg'oq-Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasining 79,9 mln so'mlik;
- Amu-Buxoro mashina kanali Olot tuman boshqarmasining 533,2 mln so'mlik.

2-holat. ANTIKOR tomonidan davlat xaridlari sohasida o'tkazib kelinayotgan o'rganishlar jarayonida:

- Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani imkoniyati cheklangan bolalar uchun 125-sonli ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab-internatining 200,5 mln so'mlik;
- Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyining 245,5 mln so'mlik;
- Surxondaryo viloyat Endokrinologiya dispanserining 313,9 mln so'mlik davlat xaridlarida qonunbuzilishi holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

Mazkur holatlar bo'yicha (bayonna maʼlumotlari) kunning o'zida) xarid komissiyasining bayonnomasini bekor qilish to'g'risida buyurtmachilarga taqdimnomalar kiritildi va to'plangan hujjatlar qonuniy chora ko'rish uchun Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga yuborildi.⁴

3-holat. Andijon viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi buyurtmasi bo'yicha 59,2 mldr. so'mlik obyektlar qurilishi ishlari uchun “Milano Biznes Servis” MChJ va “Andijon ihlos qurilish” MChJ bilan pudrat bitimi tuzilgan bo'lib, mazkur korxonalarning 100 foiz ulushi davlat buyurtmachisi rahbari Qodirov Muhiddin Abduraimovichga tegishli ekanligi bildirilgan.⁵

Yuqorida ko'rsatilgan holatlardan bilish mumkinki, davlat xaridlari sohasida juda ko'plab korruption qonunbuzarliklarga duch kelish mumkin.

⁴ www.anticorruption.uz

⁵ www.daryo.uz

Xorijiy tajriba qanday?

Ukraina davlati

Ukraina Iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi (MEDT) hisob-kitoblariga ko'ra, 2014 yilda cheklangan raqobat va eskirgan va samarasiz xaridlar tizimidagi korruptsiya tufayli mamlakat umumiy xarid qiymatining taxminan 20 foizini yo'qotgan. "Biz Kiev shahar ma'muriyatida va butun mamlakat bo'y lab USAID tomonidan moliyalashtirilgan "Ukrainaning davlat xaridlari uchun elektron boshqaruvni kuchaytirish" loyihasi uchun "ProZorro" nomli yangi elektron xaridlar tizimini joriy qilish uchun biznes va texnik talablarni baholadik. Tizim Maydan inqilobi energiyasidan ilhomlangan xususiy va notijorat sektorlarining ko'ngilli faollari guruhi tomonidan yaratilgan. Ukraina Prezidenti ma'muriyati va MEDT ko'magida ular muammoni hal qilishdi va ProZorro bir nechta davlat muassasalari va munitsipalitetlarda sinovdan o'tkazildi. Bizning baholashimiz natijasida elektron xaridlar tizimini yanada rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha tavsiyalar va uni butun mamlakat bo'y lab tarqatish strategiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, biz xaridlar bo'yicha mutaxassislarining kasbiy mahorat darajasini oshirdik, davlat xaridlari bilan bog'liq firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib - taomillarini rasmiylashtirdik va xususiy sektor subyektlari, ayniqsa, kichik va o'rta biznesning keng doiradagi elektron xaridlar tizimidan foydalanishini rag'batlantirdik, deya ma'lumot bergen vazirlik.⁶

AVSTRIYA DAVLATI

Avstriyada Federal xaridlar agentligi bu borada o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu agentlik korrupasiyaga qarshi strategiyani ishlab chiqqan bo'lib, unda halollik prinsipi strategiyaning markazi bo'lib xizmat qiladi. Bunda agentlik tomonidan davlat xaridlari sohasida korrupsiyani kamaytirish uchun quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:⁷

- Aniq tashkiliy tartib va qoidalar belgilash;
- Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni real hayotga integratsiya qilish;
- Doimiy ravishda strategiyani qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;
- Xodimlar xabardorligini oshirish;
- Ochiqlik , shaffoflikni ta'minlash jamoatchilik uchun;
- Korrupsiya keltirgan oqibatlarga e'tiborni kuchaytirish.

XULOSA

⁶ <https://www.msiworldwide.com/projects/reducing-corruption-in-ukraines-public-procurements>

⁷ OECD "Preventing corruption in public procurement" 2016

Hozirgi kunda haqiqatdan ham davlat xaridlari sohasiga oid asosiy prinsiplar deya qaraluvchi korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik, shaffoflik prinsiplari ishlamayapti. Ya'ni qonunchilikda yozilgan , ammo amalda bunga zid turli xatti- harakatlar amalga oshirilmoqda. Eng ayanchli va xavfli jihat shundaki, ushbu xatti-harakatlar, qonunbuzarliklar, korruption holatlar biz davlatni , uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotini ishonib topshirgan mansabdar shaxslar tomonidan o'z mansablarini suiste'mollik qilish orqali sodir etilmoqda. Ma'lumki, hozirda O'zbekistonda tadbirkrolik faoliyatini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Hattoki joriy yil ham “Biznes va yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili” deya e'lon qilingan. Shunday ekan , mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlarning huquqlarini cheklamaslik, ularga yanada kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida ham davlat xaridlari insof, halollik ila amalga oshilishi lozim. Quyida amalda kuzatilayotgan muammolarga yechim bo'lishi mumkin bo'lgan takliflarni berishga harakat qilamiz. Shuni unutmaslik kerakki, iqtisodiyot rivojlansagina davlat rivojlanadi. Davlat halol, insofli harakat qilsagina , xalq unga ergashadi. Fikrimizcha, sohadagi korruption xavf-xatarlar darajasini pasaytirish va samarali korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni yaratish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:

1. Davlat xaridlari markaziy axborot portalı (DXMAP) bazasida tegishli elektron ma'lumotlar bazasi bilan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalining ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash orqali nazorat organlari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflarni onlayn aniqlash imkonini beruvchi elektron tizimni joriy qilish;
2. Davlat xaridlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun zarur shart- sharoitlar yaratish, xususan ochiq ma'lumotlar bazasini kengaytirish, jumladan benefisiarlarning ochiq elektron reestrini yuritish;
3. Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida “jamoatchilik nazorati” sahifasini yaratish, bunda har bir lotdagi davlat xaridi bo'yicha jamoatchilik vakillari tomonidan o'z fikrini bildirish yoki izoh qoldirish va muhokama qilish hamda ushbu xarid bo'yicha nazorat qiluvchi organlarga onlayn shikoyat qilish imkoniyatini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. “Davlat xaridlari to‘g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yil, O‘RQ-684-son
2. “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog’liq tartib-taomillarni tashkil etish va o’tkazish tartibi to‘g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2022 yil, 276-son
3. “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g’risida” gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.09.2018 yildagi PQ-3953-son
4. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 03.01.2017-yil, O‘RQ-419-son
5. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga moljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida” 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son

II. Adabiyotlar

1. O‘roqov U. “Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun” . “Bozor, pul va kredit” jurnali, 8-son, 2018-yil

III. Xorijiy adabiyotlar

1. OECD “Preventing corruption in public procurement” 2016

IV. Internet manbalari

1. <https://lex.uz/docs/-5382974>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6026643>
3. <https://lex.uz/docs/-3920651>
4. www.daryo.uz
5. <https://xarid.uzex.uz/purchase/direct-purchase/666469/details>
6. <https://anticorruption.uz/uz/item/2023/03/27/davlat-xaridlari>
7. <https://www.msiworldwide.com/projects/reducingcorruption-in-ukraines>